

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAUPOV GAYRAT SOYIBOVICH**

**BUXORO VILOYATIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN  
TURISTIK XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH UCHUN  
FOYDALANISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economics**

**Raupov Gayrat Soyibovich**

Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....

3

**Раупов Гайрат Сойибович**

Совершенствование организационно-экономических механизмов использования объектов культурного наследия в Бухарской области в целях диверсификации туристических услуг.....

28

**Raupov Gayrat Soyibovich**

Enhancing the organizational and economic mechanisms for utilizing cultural heritage sites in the Bukhara region to diversify tourism services

55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

59

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAUPOV GAYRAT SOYIBOVICH**

**BUXORO VILOYATIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN  
TURISTIK XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH UCHUN  
FOYDALANISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4629 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ibragimov Nutfillo Salimovich,**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Eshtayev Alisher Abduganiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qodirov Azizjon Anvarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.1.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «23» avgust kuni soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 221-26-46, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz).)

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (700 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99 865) 224-67-00, faks.: (99 865) 224-57-00, e-mail: [info@buxdu.uz](mailto:info@buxdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» yun kuni tarqatildi.

(2025-yil «22» iyul dagi № 27 raqamli reyestr bayonnomasi).



**O.X.Xamidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**D.Sh.Yavmutov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, i.f.d., professor

**B.N.Navruz-Zoda**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning turizm sohasi rivojlangan mamlakatlarda madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish hamda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniya, Italiya, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarda madaniy meros obyektlari nafaqat muzey sifatida, balki ekspozitsiyalar zali, MICE turizm xizmatlari taqdim etiladigan joy, joylashtirish vositasi, 3D texnologiyalar asosida tarixni qayta jonlantirish ko'gazmalari maqsadida foydalanilmoqda. "Jahon madaniy merosi turizm bozori hajmi 2023-yilda 661,80 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va 2024-yilda bu raqam 709,29 milliard dollarga yetdi, 2034-yilga kelib bu yo'nalishdagi ko'rsatkich 1418,40 milliard dollarga yetishi prognoz qilinib"<sup>1</sup>, Buxoro viloyatidagi 56 ta madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida madaniy meros obyektlaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli, diversifikatsiya matritsasini ishlab chiqish, geomeros va madaniy meros o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, tadbirkorlarga madaniy meros obyektlarini ijaraga berish orqali diversifikatsiya jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

O'zbekistonda madaniy meros obyektlaridan foydalanish orqali turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish natijasida turistik oqimni oshirish, mavsumiy tebranishlarni yumshatish, sohani barqaror rivojlantirishga erishishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga yetkazish"<sup>2</sup> belgilangan. Ushbu holatlar, Buxoro viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlari imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni ijaraga berish orqali turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlarni olib borish zaruratidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 12-avgustdagi PQ-287-sonli "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida",

<sup>1</sup> <https://www.precedenceresearch.com/heritage-tourism-market>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni, 28.01.2022 y. <https://lex.uz/docs/5841063>

2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 27-maydagi PQ-261-sonli “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-yil 18-fevraldagi PF-75-son “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktyabrdagi 606-sonli “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli turli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Madaniy meros obyektlaridan foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlar xorijlik olimlardan J.E.Gordon, T.Loulanski, K.Olson, R.Dowling, E.Pijet-Migoń, P.Migoń, J.P.Siregar, J.Josefsson, I.L.Aronssonlar<sup>3</sup> tomonidan olib borilgan bo‘lib, olimlar strategik boshqaruv, ta‘lim, inson huquqlari, kreativ turizm kabi yo‘nalishlarda masalani ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlaridan N.S.Morozova, G.Minsberg, I.Gurkov, I.Denisova, P.V.Straxov singari olimlarning tadqiqotlari ham diversifikatsiya tushunchasining mohiyatini ochishda salmoqli o‘rin tutadi<sup>4</sup>.

O‘zbekistonlik olimlardan B.N.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, D.Sh.Yavmutov, N.Tuxliyev, M.M.Muxammedov, D.X.Aslanova, N.S.Ibragimov, A.Norchayev, B.X.To‘rayev, S.S.Ro‘ziyev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, A.A.Eshtayev,

---

<sup>3</sup> Gordon, J.E. Geoheritage, geotourism and the cultural landscape: Enhancing the visitor experience and promoting geoconservation. *Geosciences* 2018, 8, 136.; Loulanski T. Revising the concept for cultural heritage: the argument for a functional approach // *International journal of cultural property*. – 2006. – T. 13. – №. 2. – С. 207-233.; Olson, K.; Dowling, R. Geotourism and cultural heritage. *Geoconserv. Res.* 2018, 1, 37–41; Pijet-Migoń E., Migoń P. Geoheritage and cultural heritage—a review of recurrent and interlinked themes // *Geosciences*. – 2022. – T. 12. – №. 2. – С. 98.; 10. Siregar J. P. The evolving cultural heritage concept: A theoretical review of cultural heritage in Indonesia // *IOSR Journal of Engineering (IOSRJEN)*. – 2018. – T. 7. – №. 8. – С. 57-62.; 15. Josefsson J., Aronsson I. L. Heritage as life-values: a study of the cultural heritage concept // *Current Science*. – 2016. – С. 2091-2098.

<sup>4</sup> Морозова Н.С. Теория и методология формирования и развития конкуренции в туризме // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. - Сочи 2012, 46 с.; Генри Минцберг / Менеджмент: природа и структура организаций. — Пер.с англ. Е.Д. Ряхиной изд. — Москва: Эксмо, 2018. — 512 с.; Гурков, И.Б. Стратегия и структура корпорации: учебное пособие / И.Б. Гурков. — 2-е изд., перераб. — М.: Дело, 2008. — 288 с.; Denisova I.V. Clarification of the concept of "diversification". *The Eurasian Scientific Journal*. 2022; 14(6): 51ECVN622. Available at: <https://esj.today/PDF/51ECVN622.pdf>. (In Russ., abstract in Eng.); Страхов П. В. Понятие и сущность диверсификации производства // ЭКОНОМИНФО. 2007. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-suschnost-diversifikatsii-proizvodstva> (дата обращения: 06.10.2024).

M.T.Aliyeva, G.R.Xidirova, A.J.Abdullayev, A.A.Qodirov, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubovning tadqiqotlari turistik hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning turli masalalariga bag'ishlangan<sup>5</sup>.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlar madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishga oid muammolar, madaniy meros obyektlarining turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish, sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turistik xizmatlar diversifikatsiya jarayonlarini takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq, ular tomonidan Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlarini ijaraga berish orqali turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur jihatlar muammoning dolzarblik darajasining yanada oshishiga va ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining №HTR-03 "Hududiy turizmni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>5</sup> Navro'z-Zoda B.N. umumiy tahriri ostida. Turistik hudud raqobatbardoshligi //monografiya – Buxoro, 2017. 150 b.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar // Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2016. 203 b.; Yavmutov D.Sh., Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara. XVII International scientific survey of problems of economics, finance and management. Boston, USA. May 24-25, 2020. – R. 15-21. Тухлиев Н. Национальные модели развития туризма // –Т.: Гос. Науч. Изд-во "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. 386 b.; Xidirova G.R. Ichki turizm xizmatlarini shakllanishida talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni baholash. // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2021-yil 6-son. - 250-263 b.; Aslanova D.X. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. С.4-9; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // [Matn]: monografiya. - Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. - 204 b.; Norchaev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // Doktorlik dissertatsiyasi. TDIU, 2021-y. 248 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма // -док. дисс. автореф., 2011. 38 с.; Ro'ziyev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. Iqt.fan.nomzodi dissertatsiyasi – T.2009; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. 265 b.; Safarov B.Sh., Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // – T.: Fan va texnologiya, 2016, 184 b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 71 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 78 b.; Abdullayev A.J.// Diniy turizm va diniy meros: turizm rivojlanish omili vol. 5 no. 1 (2025): boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish. diss. avtoref. – Samarqand, 2024. –.68 b.; Mirzaev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –.68 b.; Matyakubov U.R., Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish //Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2022. 78 b.

turizm sohasida madaniy meros obyektlaridan foydalanishning nazariy, uslubiy va konseptual asoslarini tadqiq etish;

madaniy meros obyektlardan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning uslubiy jihatlarini tadqiq etish;

madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish yoʻnalishlarining xalqaro ilgʻor tajribalarini oʻrganish;

Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijadorligining umumiy tahlilini amalga oshirish;

madaniy meros obyektidan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanilayotgan “Bukhara tower” turistik kompleksining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlarini tahlil qilish;

madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasini ishlab chiqish;

Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlarini tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish orqali turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning ustuvor yoʻnalishlarini aniqlash;

Mirzo Usmon masjidi negizida “MICE turizm markazi”ni tashkillashtirishning istiqbolli yoʻnalishlarini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlarida turistik xizmatlarni koʻrsatish bilan shugʻullanadigan davlat va nodavlat xoʻjalik yurituvchi subyektlar faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan foydalanib turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekspert baholash, monografik kuzatuv, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

madaniy meros obyektlarida turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash yondashuvi mavjud shart-sharoitlar, bozor talabi, raqobat ustunliklari, raqobatchilarning bozordagi pozitsiyasi, narxlar dinamikasi omillariga ustuvorlik beruvchi agressiv, himoyaviy va neytral strategiyalar asosida takomillashtirilgan;

madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda tashkiliy jihatdan institutsional va innovasion moslashuvchanlik, iqtisodiy jihatdan moliyaviy xavflarni baholash va oldini olish, ijara narxlarini solishtirish va toʻgʻri belgilash mexanizmlarini kiritish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

radiusli klasterlashtirish yondashuvi asosida Xoʻja Usmon madaniy meros obyektini “MICE turizm markaziga” aylantirish orqali Buxoro viloyatiga keladigan turistik oqim mavsumiy tebranishlarini yumshatish taklifi asoslangan;

konglomerat diversifikatsiya usulini qoʻllash asosida “Bukhara tower” madaniy meros obyektiga tashrif buyuradigan turistlar oqimining 2029-yilgacha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini vertikal, gorizontal, konsentrik va konglomerat diversifikatsiya turlaridan foydalanilgan holda agressiv, himoyaviy va neytral strategiyalariga asoslangan “turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning 3 yondashuvli modeli” ishlab chiqilgan;

madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli hamda diversifikatsiya maqsadi va madaniy meros obyektlari tabaqalanuvchanligi matritsasi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatidagi ijara shartnomalari asosida tadbirkorlar ixtiyoriga berilgan obyektlar tahlilini amalga oshirish orqali hozirda ijaraga berilishi mumkin bo‘lgan moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlari ro‘yxati hamda obyektlarning foydalanish maqsadlari bo‘yicha tasnifi shakllantirilgan;

Buxoro shahridagi uchta “Qadimiy hovli binosi” madaniy meros obyektida “Hunarmandning bir kuni” xizmatini taklif etish orqali kutilayotgan daromad ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatidagi 57 ta madaniy meros obyektidan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan xizmat turlari klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi, Buxoro viloyat hokimligi ma’lumotlari, Jahon turizm tashkiloti tomonidan har yil e’lon qilib boriladigan rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilganligi va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan foydalanib turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining takomillashtirilganligida ifodalaniib, madaniy meros obyektlarini ijaraga berish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish orqali turistik xizmatlar turi va ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dissertatsiyadan olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlari huzurida yangi turistik xizmatlarni joriy qilish orqali turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish natijasida turistik oqim mavsumiy tebranishlarini yumshatish, mahalliy aholi farovonligini oshirish, madaniy meros obyektlarining jozibadorligini oshirish, Buxoro viloyatiga barcha mavsumlarda tashrif buyurish mumkin bo‘lgan turistik marshrutlarni joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Turopatorlik faoliyatini tashkil qilish”, “Turistik destinatsiyalarni boshqarish”, “Madaniy turizm”, “Turizmda tadbirkorlik faoliyati” kabi fanlarning o‘quv dasturlari, darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni takomillashtirish va o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

madaniy meros obyektlarida turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash yondashuvi mavjud shart-sharoitlar, bozor talabi, raqobat ustunliklari, raqobatchilarning bozordagi pozitsiyasi, narxlar dinamikasi omillariga ustuvorlik beruvchi agressiv, himoyaviy va neytral strategiyalar asosida takomillashtirish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 543-son "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 2-ilovasida belgilangan topshiriqlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 24-martdagi 03-10-17-2558-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish imkoniyati kengaygan;

madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishda tashkiliy jihatdan institutsional va innovasion moslashuvchanlik, iqtisodiy jihatdan moliyaviy xavflarni baholash va oldini olish, ijara narxlarini solishtirish va to'g'ri belgilash mexanizmlarini kiritish maqsadga muvofiqligi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktyabrdagi 881-sonli "Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 24-martdagi 03-10-17-2558-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida madaniy meros obyektlarini tadbirkorlarga ijaraga berish orqali innovatsion turistik xizmatlarni joriy qilish imkoniyati yaratilgan;

radiusli klasterlashtirish yondashuvi asosida Xo'ja Usmon madaniy meros obyektni "MICE turizm markaziga" aylantirish orqali Buxoro viloyatiga keladigan turistik oqim mavsumiy tebranishlarini yumshatish bo'yicha asoslangan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli qarorining "Turizm sohasini yanada rivojlantirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 3-bandida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 24-martdagi 03-10-17-2558-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Buxoro shahrida MICE turizmni rivojlantirish imkoni yaratilgan;

konglomerat diversifikatsiya usulini qo'llash asosida "Bukhara tower" madaniy meros obyektiga tashrif buyuradigan turistlar oqimining 2029-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 543-son "2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim

o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 24-martdagi 03-10-17-2558-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida "Bukhara Tower" madaniy meros obyektida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini oshirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarda 4 ta hamda xalqaro jurnalda 1 ta maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududlarda madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida foydalanishning nazariy-uslubiy masalalari**" deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasida MMO<sup>6</sup>laridan foydalanishning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari, madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning uslubiy jihatlari, madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish yo'nalishlarining xalqaro ilg'or tajribalari kabi masalalar tadqiq etilgan.

O'tkazilgan izlanishlarimiz natijasida MMOlaridan turizm maqsadlarida foydalanish nazariyasining 17 ta omili aniqlanib, har bir omil qisqacha tavsiflandi.

---

<sup>6</sup> Madaniy meros obyekti (MMO)

**Madaniy meros obyektlaridan turizm maqsadlarida foydalanishning  
muhim omillari<sup>7</sup>**

<b>T/r</b>	<b>Omillar</b>	<b>Tavsifi</b>
1	Tarixiy ahamiyatlilik omili	MMOlarining o'z davri bilan bog'liq tarixiy voqealarini namoyon ettirish qobiliyati turistlarni jalb etuvchi eng asosiy omillar sirasiga kirib, tarixiy jihatdan ahamiyatliliigi yuqori bo'lgan obyektlarning jalb etuvchi xususiyati yuqori bo'ladi va ma'lum destinatsiyaning eng muhim nuqtalaridan biri sifatida qadrlanadi.
2	Estetik qiymat omili	Obyektning badiiy hamda estetik jihatlari, uning tashqi va ichki ko'rinishi, go'zalligi hamda dizayniga asoslangan qiymati.
3	Madaniy o'ziga xoslik omili	Obyekt orqali mahalliy va milliy madaniyatning o'ziga xosliklarini ifodalovchi elementlar.
4	Ta'lim berish va bilimlarni boyitish omili	Obyektning ta'lim jarayonlaridagi roli, tarixiy va madaniy bilimlarni oshirish borasidagi imkoniyatlari.
5	Innovatsion yondashuvlar omili	Madaniy merosni rivojlantirishda yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni keng tatbiq etish.
6	Ekologik barqarorlik omili	MMOlar va tabiiy muhit o'rtasidagi muvozanat va ularni saqlash zarurati.
7	Iqtisodiy samaradorlik omili	MMOlaridan foydalanish orqali iqtisodiy foyda olish imkoniyatlari.
8	Jamoatchilik ishtiroki omili	Mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va jamoatchilikni jalb etish jarayonlari.
9	O'zaro madaniy almashuv omili	Obyektlar orqali turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunish, muloqot va almashuvni rivojlantirish.
10	Tashkiliy-madaniy tadbirlar omili	MMOlarini turistlar nazdida to'laqonli ochib beruvchi turli darajadagi festivallar, ko'rgazmalar va boshqa shunga monand tadbirlarning tashkil etilishi, mazkur tadbirlar ko'magida o'zaro muloqot va madaniy almashuv jarayonlarini rag'batlantirish, shuningdek, mahalliy aholi va sayyohlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yuzaga keladi.
11	Qonuniy-huquqiy muhofaza omili	MMOlarini asrash, muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar, obyektlarni munosib darajada asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ro'l o'ynaydi.
12	Maqbul marketing strategiyalari omili	MMOlarini targ'ib qilish va sayyohlarni jalb etish maqsadida qo'llanadigan marketing yondashuvlari.
13	Barqaror rivojlanish omili	Madaniy merosni asrab-avaylash va xizmat ko'rsatishni rivojlantirish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni muvozanatda saqlash.
14	Axborot texnologiyalari omili	Axborot texnologiyalari madaniy merosni tanitish va keng targ'ib qilishda, obyektlarning raqamli shaklda saqlanishi va arxivlanishida, tarixiy, badiiy va madaniy qiymatga ega bo'lgan obyektlar raqamli formatga o'tkazilishi natijasida keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyati yaratiladi.
15	Sayyohlik infratuzilmasi omili	MMOlariga tashrif buyurish uchun zarur bo'lgan infratuzilma obyektlarining mavjudligi.
16	Brend omili	Hududlarda MMOlarini tanitish, targ'ib etish orqali o'ziga xos

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

		brendlar shakllanadi, mavjudlarining bozor pozitsiyasi mustahkamlanadi.
17	Maqsadli investitsiyalar omili	MMOlarini asrash va ulardan samarali foydalanishda investitsiyalar muhim o‘rin tutib, davlat va xususiy sektor tomonidan yo‘naltiriladigan investitsiyalar, obyektlarni qayta tiklash, restavratsiya qilish va xizmat ko‘rsatishni tashkillashtirishga qaratiladi.

MMOlaridan foydalanishning konseptual asoslari, ushbu tadqiqot yo‘nalishining nazariy poydevorini o‘zida mujassamlashtirgan muhim elementlardan tarkib topib, muallif fikriga ko‘ra, nazariy tushunchalar, tahliliy-uslubiy yondashuvlar, tadqiqot metodologiyalari hamda tarixiy va amaliy asoslarga tayanadi.


Tadqiqotlar natijasida, madaniy meros tushunchasiga alohida ta’rif ishlab chiqish zarurati hanuzgacha saqlanib qolayotganligi ma’lum bo‘ldi va muallif fikriga ko‘ra MMOlari – bu insoniyatga taalluqli uzoq va yaqin o‘tmishdagi voqealar, shaxslar, davrlar bilan bevosita aloqador bo‘lgan, tegishli davrning madaniy, arxitektura, san’at yoki an’analar qiymatliligi jihatidan alohida o‘rin tutuvchi, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim manbalar sifatida, mahalliy jamoalar uchun iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo‘lgan, barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatlari mavjud moddiy hamda nomoddiy obyektlar majmuasidir.

MMOlaridan turizm maqsadlarida samarali foydalanish – bu MMOlarida turizm xizmatlarini tashkillashtirish amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan nazariy yondashuvlar, usullar, strategiyalar hamda ajralib turuvchi asosiy jihatlardan unumli va izchil asosda foydalanish hisobiga, servis va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida, tadqiqotlarida, shu bilan bir qatorda qaror qabul qilishda qo‘lga kiritilishi mumkin bo‘lgan eng optimal natijalarga erishishdir.

MMOlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish – bu MMOlarida turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish turlarini yanada kengaytirish, yangilash yoki turizm tadbirkorlik subyektlari tomonidan sohaning boshqa yo‘nalishlarida o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishini anglatib, bu orqali sarflanadigan mablag‘lar va boshqa resurslarning xavf darajalarini minimallashtirish demakdir.

Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarini tahlil qilish, qiyoslash, ilmiy abstraktsiyalash natijasida MMOlarini diversifikatsiya qilishning 3 yondashuvli modeli ishlab chiqildi (1-rasm).

Unga ko‘ra, madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, uning vertikal, gorizontal, kosentrik va konglomerat turlaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Obyektning mashhurligi, funksional imkoniyatlari, joylashuvi, destinatsiya xususiyatlari va jozibadorligidan kelib chiqib, bozor o‘zgaruvchanligi shart-sharoitlaridagi dinamik jarayonlar inobatga olingan holda diversifikatsiya qilishning a)agressiv; b)himoyaviy va c)neytral strategiyalari tanlanishi mumkin. Xizmatlarni joriy etish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, MMOlari qisman moslashtirish (A), to‘liq moslashtirish (B), mutloq yangi xizmatlarni joriy etish (C) orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiyalaydi.



**1-rasm. Madaniy meros obyektlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning 3 yondashuvli modeli<sup>8</sup>**


Qisman moslashtirishda obyekt hozirgi imkoniyatlari doirasida, mavjud holatida ko'rsatayotgan xizmat turlariga ma'lum o'zgartirishlar kiritib, oldingi xizmat turlariga qo'shimcha xizmatlarni kiritgani holda, unga moslashadi. To'liq moslashtirishda yangi xizmat turlari oldingi xizmat ko'rsatish turlari bilan o'xshab ketsada, ammo avvalgi xizmat turlaridan deyarli foydalanilmaydi. Mutloq yangi xizmatlarni joriy etish xizmatlar majmuasini to'laqonli bekor qilinishi, qaysidir ma'noda butkul yangi, avvalgisiga o'xshamaydigan xizmat turlarini shakllantirishni anglatadi.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatida madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning bugungi holati, rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyatida MMOLarining moddiy texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijadorligining umumiy tahlili amalga oshirilgan, MMOdan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanilayotgan “Bukhara tower” turistik kompleksining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlangan, MMOLarida turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi ishlab chiqilgan.

Demak, butun respublikmizda bo'lgani singari hozirgi kunda Buxoro viloyatidagi mavjud barcha MMOLarini restavratsiya, konservatsiya qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilib, mazkur inshootlarning turistlarni qabul qilish imkoniyatlariga infratuzilmaviy baza yaratilgani holda, kelgusida ularning negizida va yondosh hududlari imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi turizm xizmatlarini joriy etish mumkin bo'ladi.

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi

Buxoro viloyatidagi ijara shartnomalari asosida tadbirkorlar ixtiyoriga berilgan MMOlari tahlili amalga oshirildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Buxoro viloyatida tadbirkorlar ixtiyoriga ijaraga berilgan MMOlarning 35 tasi respublika hamda 26 tasi mahalliy toifadagi obyektlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ijaraga berilgan MMOlarning foydalanish maqsadiga ko‘ra ulushi tahlil qilinganida savdo hamda madaniyat va san‘at faoliyatlari bo‘yicha 14 ta obyekt ixtisoslashgani ma‘lum bo‘ldi va bu borada eng ko‘p miqdor aynan ushbu maqsadlardagi inshootlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Undan keyingi o‘rinlarda faqatgina savdo faoliyati bo‘yicha 12 ta, mehmonxona maqsadida 12 ta, madaniyat va san‘at faoliyat maqsadlari bo‘yicha 7 ta obyektlar to‘g‘ri kelishi ma‘lum bo‘lgan bo‘lsa, qolgan maqsadlardagi inshootlar ulushi unchalik yuqori emasligi aniqlandi (2-rasm).




**2-rasm. Buxoro viloyatida tadbirkorlar ixtiyoriga ijaraga berilgan MMOlarning foydalanish maqsadiga ko‘ra taqsimlanishi<sup>9</sup>**

O‘zbekiston o‘z oldiga 2030-yilga borib, 15 milliondan ziyod turistni qabul qilishni asosiy maqsad sifatida belgilab olgani, 2023-yilda qayd etilgan 6,3 million nafar sayyohlar ko‘rsatkichi bilan solishtirganda juda ulkandek tuyulishi mumkin. Biroq, aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2023-yilning o‘zida mamlakat iqtisodiyotining turizm sohasidan olgan daromadlari hajmi 2,1 milliard dollardan oshgani, shuningdek, sohada 70 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratib berilganligi prognozlarning yanada optimistik ko‘rinish olishiga asos bo‘lmoqda.

Konglomerat va gorizontol diversifikatsiya strategiyalari kuchli raqobat pozitsiyasi sifatida belgilanganligini inobatga olib, konglomerat diversifikatsiya usulini qo‘llash asosida “Bukhara Tower” MMOiga tashrif buyuradigan turistlar oqimining 2029-yilgacha prognoz parametrlari ishlab chiqilib, bunda eng avvalo mazkur majmuadan konglomerat diversifikatsiya obyekti sifatida foydalanish sxemasi (3-rasm) asos bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>9</sup> Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasidan olingan ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi



**3-rasm. Bukhara Tower turistik majmuasidan konglomerat diversifikatsiya obyekti sifatida foydalanish sxemasi<sup>10</sup>**

Bukhara Tower turistik majmuasidan konglomerat diversifikatsiya obyekti sifatida foydalanish natijasida olinadigan daromadlarning 2026-2029-yillar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilib, bunda turistlarning panorama maqsadlarida sarflaydigan sarf-xarajatlari hisobi asos sifatida olindi. Natijalarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak (2-jadval), o'rtacha o'sish ko'rsatkichlari 5 % dan o'sib borish dinamikasi ta'minlanganda majmua daromad hajmi 777 million so'mdan 898,3 million so'mgacha, 7% dan o'sish holatida 4141 million so'mdan 5074 million so'mgacha, 10% lik ko'rsatkichlar ta'minlanganda 866,4 milliondan 1154,1 million so'mgacha hamda optimistik kutilmalarda 20% lik o'sish qayd etilishi natijasida 1018,4 million so'mdan maksimum 1760,3 million so'mgacha diapazonda bo'lishi kutilmoqda.

**2-jadval**

**Bukhara Tower turistik majmuasidan konglomerat diversifikatsiya obyekti sifatida foydalanish natijasida olinadigan daromadlarning 2026-2029-yillar prognoz ko'rsatkichlari (Ovqatlanish va panorama xizmatlari)<sup>11</sup>**

Ko'rsatkichlar	2026-yil	2027-yil	2028-yil	2029-yil
Panorama maqsadlaridagi turistlar soni (+5%)	5775	6064	6368	6687
Ovqatlanish xizmatlaridan foydalanish maqsadidagi turistlar soni (+5%)	4063	4267	4480	4704
Daromad hajmi (mln so'm)	777	815,2	856,4	898,3
Panorama maqsadlaridagi turistlar soni (+7%)	6541	6999	7489	8014
Ovqatlanish xizmatlaridan foydalanish maqsadidagi turistlar soni (+7%)	4141	4431	4742	5074

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi


<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi

Daromad hajmi (mln so‘m)	824	882	943,4	1009
Panorama maqsadlaridagi turistlar soni (+10%)	7109	7820	8602	9463
Ovqatlanish xizmatlaridan foydalanish maqsadidagi turistlar soni (+10%)	4257	4683	5152	5668
Daromad hajmi (mln so‘m)	866,4	953	1049,1	1154,1
Panorama maqsadlaridagi turistlar soni (+15%)	8123	9342	10744	12356
Ovqatlanish xizmatlaridan foydalanish maqsadidagi turistlar soni (+15%)	4451	5119	5887	6771
Daromad hajmi(mln so‘m)	940,1	1081,1	1243,2	1430,8
Panorama maqsadlaridagi turistlar soni (+20%)	9228	11073	13288	15946
Ovqatlanish xizmatlaridan foydalanish maqsadidagi turistlar soni (+20%)	4644	5573	6688	8026
Daromad hajmi (mln so‘m)	1018,4	1223	1467,4	1760,3

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatidagi madaniy meros obyektlaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Buxoro viloyatidagi MMolarini tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish orqali turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari takomillashtirilgan, Buxoro viloyatida MMolaridan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish uchun foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari hamda Mirzo Usmon masjidi negizida “MICE turizm markazi”ni tashkillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilangan.

4-rasmda MMolarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari keltirilib, muallif fikricha ushbu chora-tadbirlar kompleks asosda amalga oshirilishi diversifikatsiya maqsadlariga erishish hamda to‘g‘ri strategik yondashuvni ro‘yobga chiqarishda eng muhim ta’sirchan vositalar bo‘lishi mumkin. Tashkiliy asoslarning puxta ishlab chiqilishi resurslar sarfini minimallashtirish imkoniyatini taqdim etib, birinchidan, menejment uchun o‘ta muhim sanalgan vaqt sarfini sezilarli darajada kamaytirilishiga olib kelsa, ikkinchidan, mablag‘lar maqsadsiz sarflanish riskini yo‘qqa chiqarib, lozim amaliyotlar siklini tezlashtirib bera oladi.

*Tashkiliy tuzilmani o‘zgarishlarga moslashtirish va tezkor reaksiya bildirish qobiliyatini shakllantirish* – MMolarida xizmatlar diversifikatsiyani amalga oshirishdan turli maqsadlar ko‘zlangani holda, bozorning o‘zgarishlari shart-sharoitlarida tezkor reaksiya bildirish, ya’ni korxonada faoliyatiga jiddiy xavflar yuzaga kelayotgan taqdirda, ushbu xavflarni kamaytirish uchun boshqaruv sohasi vakillari murakkab vaziyatlardan chiqib keta olishning eng tezkor chora-tadbirlarini amalga oshirishlariga to‘g‘ri keladi va bunday vaziyatda moslashuvchanlik qobiliyati o‘ta zarur yechim demakdir.



**4-rasm. MMOlarida turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari<sup>12</sup>**

*Xodimlar malakasini treninglar, loyihalar va maxsus dasturlar orqali oshirib borish* – har qanday yangi xizmat turlari, xoh u mutlaqo avvalgilarini takrorlamaydigan darajadagi jihatlarga ega bo'lsin, yoki ma'lum bir o'zgarishlar kiritilgan an'anaviy xizmat turlarining qisman yangilangan formatida hayotga tadbiq etilayotgan bo'lsin, MMOi xodimlari bunga mutloq tayyorgarlik darajasiga ega bo'lishi hamda xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini namoyish eta olishi zamonaviy turizm bozorining muhim shartlaridan biridir. Albatta bu kabi talablar ma'lum davr oralig'ida professional soha mutaxassislarini jalb etish orqali

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

tashkillashtiriladigan maxsus dasturlar hamda treninglar vositasida kadrlar malakasini oshirib borilishi jarayonlari uzluksizligini ta'minlashni taqazo etadi.

*Innovatsion g'oyalar uchun ochiq platformalar portallarini shakllantirish* – ochiq platformalar portallari g'oyasining asosi shundan iboratki, bu faqatgina ma'lum bir MMOi uchun emas, balki tizimli ravishda butun boshli hududning madaniy resurslari potentsiali hamda ulardan foydalanilishining darajasidan kelib chiqib, destinatsiya imkoniyatlariga muvofiq kela oladigan innovatsion g'oyalarni izlab topish va eng istiqbolli loyihalarni tanlash hamda amalga oshirilishini anglatib, minglab IT sohasi vakillari va sun'iy intellekt tadqiqotchilarini jalb etish orqali amalga oshiriladi.

*Ma'lumotlar almashinishini yaxshilash* – gap shundaki MMOlaridan turistik maqsadlarda foydalanilishi juda istiqbolli va tez o'sib borayotgan turizm sohasi yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilsada, har doim ham ko'zlangan yoki rejalashtirilgan texnologiyalarni bu kabi inshootlarda qo'llash imkoniyati yuzaga kelmasligi, bu bevosita obyektlarni muhofaza qilish jarayonlari bilan bog'liq sanalib, davlat tashkilotlari talablari natijasi o'laroq kuzatilishi mumkin bo'lgan holat. Ma'lumotlar almashinishini yaxshilash esa aynan mazkur holatlardagi murakkabliklarni ham ma'lum ma'noda yechimini taqdim etib bergani holda, avvalo, xodimlar va boshqaruv sohasi o'rtasidagi rasmiy jarayonlarning avtomatlashgan shaklini yuzaga keltirish orqali, undan tashqari tashrif buyuruvchilarning xizmat ko'rsatish tizimi bilan muloqotda bo'lishlari hamda zaruriy ma'lumotni qisqa fursatlarda topa olishlariga asos bo'ladi.

*Loyihalarni samarali boshqarish usullarini joriy etish* – loyihalarni amalga oshirishdan ko'zlanadigan maqsad, MMOlari jozibadorligini turist nazdida oshirishda ko'mak beruvchi, kompaniya duch kelayotgan ma'lum bir muammolarga yechim bo'la oladigan real variantlarga ega bo'lish hamda yuzaga kelgan vaziyatni o'z foydasiga hal qilinishiga erishish demakdir. Loyihalarni boshqarish usullari turli sabablarga ko'ra samarali bo'lmasligi mumkinligi, jumladan, kadrlarning salohiyati passivligi, boshqaruv jamoasining turli qarashlarga egaligi va hamjihatlikning yo'qligi, inson omili bilan bog'liq bo'lmagan ya'ni joylashuv, internet tezligi, texnologiyalarni qabul qilish, jamiyatning o'zgarishlarga tayyor emasligi va mehmondo'stlik muhitining turlicha ekanligi bilan bog'liq. Aynan mana shu jihatlarga ko'ra samarali boshqaruv usullarini joriy etish dolzarb yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

*Tashkiliy maqsadlar bo'yicha rag'batlantirish tizimini yaratish* – MMO xodimlarning mehnat faoliyatini rag'batlantirish, ishtiyoqini oshirish va ularni firma strategik maqsadlariga erishishi jarayonlarida yanada faollashtirishni nazarda tutib, bu tizim xodimlar uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilab berish va ularga erishganliklari uchun mukofotlar taqdim etish asosida amalga oshiriladi. Rag'batlantirish tizimi mukofotlar, bonuslar, lavozimda ko'tarish va boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin va tizimni yaratishda xodimlarning ehtiyojlari hamda tashkilot maqsadlari o'zaro muvofiqligini hisobga olish zarur.

*Mijozlar fikrini doimiy ravishda o'rganib borish* – mijozlar fikrini o'rganish MMO xizmatlarini yanada yaxshilash va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirish uchun zarur bo'lib, jarayon doimiy ravishda amalga oshirilishi, mijozlarning

fikrlari va talablarini maksimal darajada aniqlashtirishga qaratilishi lozim. Ayni maqsadni ro'yobga chiqarishni ko'zlab, so'rovnomalar, intervyular, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng imkoniyatlaridan foydalanilishi mumkin.

*Sifat nazoratini kuchaytirish va monitoring* – sifat nazorati MMOlarida xizmatlar va mahsulotlarning doimiy yuqori sifatini ta'minlash uchun muhim mexanizm hisoblanib, bu tizim sifat standartlarini belgilab borish, ularni amalga oshirish va monitoring qilishni o'z ichiga oladi. Sifat nazorati jarayonida xizmatlarning har bir bosqichi nazorat qilinadi va muntazam ravishda tekshiruvlar o'tkazilib, xizmat ko'rsatish jarayonlarini tahlil qilish va mijozlardan olingan fikrlarni inobatga olish orqali xizmatlar sifatini yanada oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

*Innovatsiyalarni o'zlashtirish va rag'batlantirish* – innovatsiyalarni o'zlashtirish MMOlarda faoliyat yuritayotgan korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va bozor talablariga munosib ravishda javob berish imkoniyatlarini taqdim etadi. Buning uchun innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish va amalga oshirish mexanizmlari yaratilishi, yangi loyihalarni rag'batlantirish uchun xodimlar o'rtasida va keng miqyosda tanlovlar, grantlar yoki boshqa turdagi rag'batlantirishlar joriy etilishi mumkin. Shuningdek, xodimlar o'rtasida kreativlikni oshirish uchun seminarlar va treninglarning zamonaviy axborot texnologiyalari sohasiga ixtisoslashgan shakllarini tashkil etish ham katta samara berishi mumkin.

*Murojaatlar bilan tezkor ishlash tizimini yaratish* – murojaatlar bilan tezkor ishlash tizimi turistlar va xodimlar tomonidan bo'ladigan murojatlarni tez va samarali hal qilinishini ta'minlab, mijozlarning qoniqish darajasini oshirish va muammolarni tezkorlik bilan hal etishga qaratilgan. Tezkor ishlash tizimini yaratishda murojaatlar uchun maxsus platforma jumladan, onlayn resurslar yoki call centrelardan foydalanilishi eng ommaviy va keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi.

*Ma'lumotlar bazasini shakllantirish* – ma'lumotlar bazasi korxonaning MMO xususidagi barcha ma'lumotlarini tizimli ravishda saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlab, bu orqali ma'lumotlarni tezkorlik bilan izlab topish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Avvalo ma'lumotlar bazasini yaratishda kerakli ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, masalan, bulutli texnologiyalar yoki ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari ma'lumotlarni boshqarish jarayonini soddalashtiradi.

*Iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish* yo'llariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilarda o'z aksini topadi:

